MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA GELMINTOZLARNING QIYOSIY KLINIK-BIOKIMYOVIY TAVSIFI

Matyaqubova Yulduz Rajapboyevna
Urganch davlat tibbiyot instituti, Urganch, O‘zbekiston

Dolzarbligi. Jahon sog‘ni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab millionlab aholi, jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalar turli turdagi gelmintozlar bilan zararlangan bo‘lib, ular bolalar salomatligiga, jismoniy rivojlanishiga hamda immun tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xorazm viloyati kabi mintaqaviy xususiyatlarga ega hududlarda bolalarda uchraydigan parazitar kasalliklarning klinik kechishi va uning biokimyoviy o‘zgarishlarini o‘rganish dolzarb tibbiy-ijtimoiy vazifalardan biridir.

Tadqiqot maqsadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda gelmintozlarning tarqalish xususiyatlarini o‘rganish, ularning qiyosiy klinik-biokimyoviy tavsifini berish hamda kasallikning organizm metabolizmiga ta’sirini baholashdan iborat.

Material va usullar. Tadqiqotga Xorazm viloyatida istiqomat qiluvchi 3–7 yoshdagi 180 nafar bola jalb qilindi. Bolalarning o‘rtacha yoshi 4,8±1,1 yilni tashkil etdi. Tekshiruvdan o‘tganlar gelmintoz turi aniqlangan asosiy guruhga (98 nafar) va parazitar kasalliklar aniqlanmagan ratsional nazorat guruhiga (82 nafar) bo‘lindi. Klinik tekshiruvlar davomida bolalarning umumiy ahvoli, shikoyatlari, anamnestik ma’lumotlari tahlil qilindi. Biokimyoviy tahlillarda qon zardobidagi umumiy oqsil, fermentlar faolligi va immunologik ko‘rsatkichlar aniqlandi. Olingan natijalar statistik jihatdan Studentning t-mezoni va Spirmen korrelyatsion tahlili yordamida baholandi ($p<0,05$).

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan tekshiruvlar maktabgacha yoshdagi bolalarda gelmintozlarning klinik ko‘rinishlari ko‘pincha notipik kechib, umumiy intoksikatsiya va asteno-vegetativ sindromlar bilan namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Asosiy guruhdagi bolalarda tez-tez charchash, ishtahaning pasayishi, qorin соҳасидаги og‘riqlar 68,4% holatlarda qayd etildi.
Klinik-biokimyoviy ko‘rsatkichlarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida gelmintoz bilan kasallangan bolalarda qon zardobida umumiy oqsil miqdori nazorat guruhiga nisbatan pastligi (61,2±4,3 g/l ga karsi 68,5±3,8 g/l, $p<0,01$) aniqlandi. Shuningdek, parazitar invaziya mavjud bo‘lgan bolalarda transaminazalar (ALT, AST) faolligining o‘rtacha 1,5–1,8 baravarga oshishi kuzatildi ($p<0,05$).

Korrelyatsion tahlil bolalarda gelmintoz infeksiyasi davomiyligi bilan umumiy quvvatning pasayishi va qon ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar o‘rtasida o‘rtacha kuchli ijobiy bog‘liqlik borligini ko‘rsatdi ($r_s=0,58$; $p<0,001$). Vitamin va mikroelementlar yetishmovchiligi fonida o‘tkir respirator kasalliklar bilan og‘rish chastotasi gelmintozga chalingan bolalarda 39,2% ga yuqori bo‘lishi aniqlandi.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan gelmintozlar nafaqat mahalliy parazitar zararlanish, balki umumiy metabolik buzilishlar, gipoproteinemiya va gepatobiliar tizimda biokimyoviy o‘zgarishlar bilan kechadi. Olingan natijalar bolalar orasida gelmintozlarning oldini olish, erta tashxis qo‘yish va maqsadli profilaktika dasturlarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.